



BUXGALTERIYA HISOBINING USHLUBLARI VA TAMOYILLARI

Xudayberdiyev Nizomiddin Qurbonqulovich
Yangiyo'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonada va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi yuritishning asoslari, buxgalteriya hisobining ushlublari va tamoyillari, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, sohaga oid nazariy asoslar keltirib o'tilgan. Maqolada buxgalteriya hisobining ushlublari va tamoyillarini yanada takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, korxonada, tashkilot, metod, tamoyil, balans, axborot, iqtisodiyot, hujjatlashtirish, summa, moliyaviy hisobot.

МЕТОДЫ И ПРИНЦИПЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА

Xudayberdiyev Nizomiddin Qurbonqulovich
Профессиональная школа №2 Янгиюльского района

Аннотация. В данной статье рассматриваются основы бухгалтерского учета на предприятиях и организациях, методы и принципы ведения бухгалтерского учета, научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на этот счет, а также теоретические основы отрасли. В статье представлены выводы и предложения по дальнейшему совершенствованию методов и принципов бухгалтерского учета.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, предприятие, организация, метод, принцип, баланс, информация, экономика, документация, сумма, финансовый отчет.

METHODS AND PRINCIPLES OF ACCOUNTING

Khudayberdiyev Nizamiddin Kurbonkulovich
Vocational School №2, Yangiyol district

Abstract. This article considers the basics of accounting in enterprises and organizations, the methods and principles of accounting, the scientific and theoretical views of foreign and local scientists in this regard, and the theoretical foundations of the field. In addition, the presents conclusions and proposals for further improvement of the methods and principles of accounting.

Keywords: accounting, enterprise, organization, method, principle, balance sheet, information, economy, documentation, amount, financial report.

Kirish.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish turli tarmoqlardagi korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv tizimini yangi talablarga moslashtirish - ushbu subyektlarda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tartib qoidalariga bevosita bog'liqdir. "Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarni yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotlarini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzishdan iborat" (13.04.2016). Buxgalteriya hisobi kishilik jamiyati rivojlanishi, uning faoliyat yuritish tartibi bilan bevosita bog'liqdir (Кочун, 2016).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxida sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyat darajasida kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Ishlab chiqarishni samarali tashkil etayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish, ikkilamchi resurslar va yondosh mahsulotlarni maqsadga muvofiq ishlatishni taqozo etadi (Musayev, 2017).

Erkin raqobat hukumronlik qilayotgan sharoitda buxgalteriya hisobining muhim vazifasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy xavfsizligini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashdan iborat. Buxgalteriya hisobi orqali turli mulkdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda respublikamizda qabul qilinayotgan iqtisodiy qonunlar va ulardan kelib chiqadigan vazifalar tadbiq qilib boriladi, ularning ijrosi nazorati ta'minlanadi. Shuning uchun korxonalarining "hisob siyosati" tarmoqlar, milliy iqtisodiyotning "hisob siyosati"ga mos kelishi kerak.

Metod (usul, yunoncha - metodos) tushunchasi ikki ma'noni bildiradi: - ayrim voqealarni bilish va o'rganish usuli; - alohida usul, harakat usuli yoki ko'rinish. Har qanday yo'nalishning predmeti va ob'ektlarining mohiyatini bilishga mazkur yo'nalish metodining mazmunini bilish orqali erishiladi (Xasanov va boshq., 2020). Buxgalteriya hisobining metodi deb mazkur yo'nalish predmetini o'rganish uchun qo'llaniladigan usul (element)larning ilmiy asoslangan tizimiga aytiladi.

Buxgalteriya hisobining metodi faqat uning o'ziga xos usullardan iborat bo'lib, ular yo'nalish predmetining mohiyati va uning oldiga qo'yilgan vazifalar hamda talablardan kelib chiqadi.

Adabiyotlar sharhi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimlari nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki byudjet muassasasi faoliyati ko'rsatkichlari va uning moliyaviy natijalariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida byudjet muassasalaridan o'zlarining to'liq moliyaviy ahvoli (shu jumladan, aktivlar va passivlar to'planishi) to'g'risida hisobot berishni talab qiladi. ularning faoliyatining barcha xarajatlarini, shu jumladan aktivlardan foydalanishni baholash. Ular to'rtta asosiy turga bo'linadi: 1) buxgalteriya hisobining kassa asosi; 2) buxgalteriya hisobining o'zgartirilgan kassa bazasi; 3) buxgalteriya hisobining o'zgartirilgan hisoblash asosi; 4) buxgalteriya hisobining to'liq hisoblash asosi (Adamyk, Adamyk, 2017).

Klimova (2003) ilgari taqdim etilgan mualliflar tomonidan ko'rsatilgan inventarizatsiyani o'tkazish majburiyatining analogi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan "iqtisodiy faoliyat faktlarini miqdoriy o'lchash va hisoblash" tamoyilini ko'rsatib dergan yagona shaxsdir.

Buxgalteriya hisobini rivojlantirish va uning yangi iqtisodiyot talablariga mos kelishini ta'minlash masalalari keyingi paytlarda olimlar va mutaxassislar o'rtasida qizg'in muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, ko'pchilik olimlar hisobot ma'lumotlarining mazmuni, sifat xususiyatlari va shaklidagi o'zgarishlar, tamoyillar, usullar va tushunchalarni ishlab chiqish, buxgalteriya paradigmasi o'zgarishigacha bo'lgan o'zgarishlar zarurligini tan olishadi (Oditsova va boshq., 2018).

Buxgalteriya hisobotida tashkilot yagona mulkiy kompleks, tashkilot faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslar manfaatlarining birligi sifatida ko'rib chiqiladi. Buxgalteriya hisobotlarda buxgalteriya toifalari (aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar, xarajatlar, foyda va boshqalar) sifatida shaxslarning mulk, huquq va majburiyatlarini birlashtirgan korporativ manfaatlarini (tashkilotning iqtisodiy faoliyati nuqtai nazaridan muhim tarkibiy qismlar) alohida ishtirokchilarning manfaatlariga erishish uchun taqdim etiladi (Akatayeva, 2012).

Buxgalteriya hisobi usuli - buxgalteriya hisobi ob'ektlari hisobga olinadigan, ishonchli buxgalteriya ko'rsatkichlari ta'minlanadigan va shu bilan butun buxgalteriya hisobining ustuvor maqsadlariga erishadigan usullar to'plamidir. Byudjet hisobi usulining ta'rifi iqtisod fanida umumiy qabul qilingan ta'rifdan farq qilmaydi. Byudjet hisobini yuritishda usulning bir xil elementlari qo'llaniladi: byudjet hisobini axborot ta'minotini tashkil etuvchi birlamchi kuzatish; xarajatlarni o'lchash; buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini guruhlash va tizimlashtirish; buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi ma'lumotlarni to'liq (har tomonlama) umumlashtirish va taqqoslash (Maslova, 2007).

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo'yilgan eng asosiy talab - bu, uning kam xarajatli va sodda bo'lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Buning uchun eng avvalo, har bir korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarni chuqur o'rganish lozim (Urazov, 2018).

Buxgalteriya hisobida uzluksizlik tamoyili korxonani doimo harakatdagi subyekt, ya'ni o'z faoliyatini kelgusida davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi sub'ekt sifatida qaraydi. Buxgalteriya hisobini uzluksiz yuritilishi korxonaning kelajagi borligidan darak beradi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobi korxonaning kelajakda ravnaq topishiga xizmat qiluvchi vosita hamdir (Gulizahro, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, analiz, sintez, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar korxonada tashkilotlarda buxgalteriya hisobini olib borishning usullari, tamoyillari va natijalari o'rganildi, muammolar aniqlanib, sohaga oid boshqa bir qator istiqbolli vazifalar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan holda kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Buxgalteriya hisobi metodini tashkil etuvchi asosiy usullar (elementlar) quyidagilardan iborat: hujjatlashtirish va inventarizasiya; baholash va kalkulyasiya; hisobvaraqlar va ikki yoqlama yozuv; buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot. Buxgalteriya hisobi sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini hujjatlarda uzluksiz va yoppasiga aks ettirishdan boshlanadi.

Hujjatlashtirish - bu sodir bo'lgan muomalani dastlabki ro'yxatga olish usulidir. Hujjatlarda xo'jalik muomalalarining mazmuni, ularning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Hujjatlarda aks ettirilgan xo'jalik muomalalarining to'g'riligi mas'ul shaxslar imzolari bilan tasdiqlanib, ularning dalillovchi kuchi ta'minlanadi.

Hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlay turib, mulklarning saqlanishini qat'iy nazorat qilish, tejamkorlikka rioya qilish va xo'jalik faoliyati jarayonida mablag'lardan maqsadli foydalanishning muhim shartidir. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari mavjud mablag'lar bilan bir xil bo'lmog'i kerak. Bunday bir xillikni ta'minlash uchun vaqti-vaqti bilan inventarizasiya o'tkazib turish kerak.

Inventarizasiya - bu sanash, tortish, o'lchash va boshqa yo'llar bilan korxonada mol-mulkini ro'yxat qilish, olingan ma'lumotlarni buxgalteriya ma'lumotlari bilan solishtirish, aniqlangan

kamomad, ortiqcha chiqish, nobudgarchilik va hokazolar tarzidagi farqlarni hujjatlar asosida rasmiylashtirish, bu farqlarning sabablarini va aybdorlarini aniqlashdan iborat.



1-rasm. Buxgalteriya hisobining predmeti va usullarining bog'liqligi

Buxgalteriya hisobining metodini tashkil etuvchi boshqa usullar (elementlar) orasida bunday ikki tomonlama ahamiyat faqat buxgalteriya balansiga xosdir. Bunday ikki tomonlamalikda nafaqat qarama-qarshiliklar birligi qonunining mohiyati, balki korxonamoliyaviy ahvolini baholash uchun asos ham mujassamlashgan. Alohida balans moddalarining tarkibida aks ettiriladigan hisob obyektlarining iqtisodiy mohiyatini tushunishni osonlashtirish maqsadida balansda guruhlangan holda aks ettiriladi. Axborotdan foydalanuvchilar, xususan, potensial investorlar va kreditorlar balansdagi alohida guruhlar va guruhchalarning mazmunini, ular o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro bog'liqlikni o'rganadilar.

Ushbu ahamiyatli jihatlariga asosan buxgalteriya balansini quyidagicha ta'riflash mumkin: xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning vujudga kelish manbalaridagi hamda maqsadli tayinlanishidagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga qiymat ifodasida umumlashtirilgan holda aks ettirish usuli buxgalteriya balansideyiladi.

Buxgalteriya hisobida "balans" tushunchasi ikkita ahamiyat kasb etadi:

1. Jamlangan summalar tengligi, ya'ni hisobvaraqlarning debeti bo'yicha summalar jami va krediti bo'yicha summalar jami tengligi, har bir sintetik hisobvaraq ma'lumotlarining (boshlang'ich qoldig'i, debet va kredit aylanmalari, oxirgi qoldig'i) mazkur sintetik hisobvaraqqa tegishli analitik hisobvaraqlar ma'lumotlariga tengligi, balans aktividagi moddalar summalar jami va passividagi moddalar summalar jami tengligini ifodalaydi.

2. Moliyaviy hisobotning asosiy shakli bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum sanadagi mulkiy va moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni va buxgalteriyahisobining xalqaro hamda milliy standartlariga muvofiq moddiy boyliklar balansda aks ettirilganda, quyidagicha baholanadi: asosiy vositalar (ishlatilayotgani hamda zahirada yoki konservasiyada saqlanayotgani) - ularning qoldiq qiymati bo'yicha; xomashyolar, asosiy va

yordamchi materiallar, yoqilg'ilar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, idish va moddiy qiymatliklar (tayyorlash va omborga tashib keltirish sarflarini qo'shgan holda); tayyor mahsulotlar, korxonaning o'zi ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar tannarx bahoda, ulgurji omborlar va savdo qiluvchi yoki savdota'minot tashkilotlarida esa chakana bahoda yoki xarid qilingan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Shu bilan birga buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- hisoblab yozish tamoyili;
- ikkiyoqlama yozuv usuli bilan hisob yuritish;
- davomiylik (uzluksizlik);
- xo'jalik operasialari, aktivlar va passivlarga pul bilan baho berish;
- ishonchlilik;
- ehtiyotkorlik;
- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi;
- moliyaviy hisobotning xolisligi;
- aktivlar va majburiyatlarining haqiqiy bahosi;
- hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi;
- tushunarlilik;
- ahamiyatlilik;
- muhimlik;
- to'g'ri va beg'araz tasavvur;
- tugallanganlik;
- izchillik;
- zamonaviylik (o'z vaqtida taqdim etish);
- offsetting (moddalarning o'zaro hisobga olinishi);
- xolislik;
- hisob siyosati.

Moliyaviy hisobotda ayrim ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish yoki ularni boshqa ko'rsatkichlar bilan bir moddaga birlashtirish ham muhimdir. Shu sababli agar aktivlar yoki passivlarning, daromadlar yoki xarajatlarning ayrim moddalari muhim bo'lmasa, bunday hollarda modda yoki moddalar jamiining xarakteri va hajmi bir vaqtning o'zida baholanadi. Vaziyatga qarab moddaning xarakteri yoki hajmi belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt bozor sharoitida yuzaga kelgan muayyan vaziyatda aniq maqsadni amalga oshirishi uchun tegishli balans modelini tanlashi va tuzishi talab etiladi.

Shu bois, har xil vaziyatlar uchun buxgalteriya balansining turkumlanishini ko'rib chiqamiz. Balansning turlari ko'p bo'lib, ular asosan quyidagi belgilari bo'yicha turkumlanadi:

- tuzish manbasi;
- mulkchilik shakli;
- axborotlar hajmi;
- tuzish vaqti;
- huquqiy maqomi;
- taqdim etilish vaqti;
- qayta tashkil etish tartibi;
- tuzilish shakli;
- soflik darajasi;
- faoliyat turi;

- tarmoqlar bo'yicha;
- tuzish usuli bo'yicha.

Tuzish manbalariga ko'ra balanslar inventar, daftar va bosh balanslarga bo'linadi.

Inventar balans faqat mablag'larning inventar ro'yxatidan iborat bo'lib, qisqartirilgan va soddalashtirilgan shaklda tuziladi. Yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari bilan tasdiqlangan dastlabki balans bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, inventar balans korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganida ham tuzilishi mumkin.

Daftar balansi faqat Bosh daftar hisobvaraqlarining qoldiqlari asosida joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha (inventarizatsiya ma'lumotlarisiz) tuziladi.

Bosh balans Bosh daftardagi joriy buxgalteriya hisobi yozuvlari va inventarizatsiya ma'lumotlari bilan tasdiqlanganidan so'ng tuziladi.

Buxgalteriya balansi axborotlarga boy manba bo'lib, ularga asoslanib xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Aynan mana shunday muhim ahamiyatga ega bo'lganligi bois buxgalteriya balansi buxgalteriya hisoboti shakllari ichida birinchi o'rinda turadi. Undagi axborotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, balki ayrim ko'rsatkichlar o'rtasidagi mantiqiy va o'ziga xos bog'liqliklarni ham bilish zarur. Buxgalteriya balansining mazmunini bilishda uni o'qish ketma-ketligi ham muhim ahamiyatga ega, shuningdek, faqat buxgalteriya balansiga xos bo'lgan ayrim cheklashlarni, albatta, bilish zarur.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining tuzilishi hamda mazmuni undagi axborotdan foydalanuvchilar, eng avvalo tashqi foydalanuvchilarga qaratilgan. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning holatini ochib beruvchi, korxonaning joriy xarajatlari yoki foydasi hisobidan tashkil etilgan xususiy kapital va ayrim turdagi rezervlar shakllanishini ochib beruvchi moddalar batafsillik darajasining yuqoriligi shundan kelib chiqadi.

Balansga xos ichki o'zaro bog'liqliklar axborotdan foydalanuvchilar ehtiyojining qondirilish darajasiga bog'liq bo'lmaydi va quyidagilardan iborat:

1. Aktivdagi barcha bo'limlar summalari yig'indisi passivdagi barcha bo'limlar summalari yig'indisiga teng bo'lib, bu balansning mohiyati bilan izohlanadi.

2. Xususiy kapitalning hajmi (passiv I bo'lim) uzoq muddatli aktivlar (aktivdagi birinchi bo'lim) hajmidan ko'p bo'ladi. Bunday xulosa isbot talab qilmaydi. Chunki, xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati joriy aktivlarsiz mumkin emas deb qabul qilingan. Shuning uchun xususiy kapitalning tarkibi uzoq muddatli va joriy aktivlar shakllanishini doimo nazarda tutadi. Milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari aktivdagi mulklar nisbatiga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu uslub bo'yicha hisoblangan tafovut o'z aylanma mablag'larining mavjudligini ko'rsatadi. Bu mablag'lar va zahiralar hamda xarajatlarni shakllantirish kapital va rezervlar (passiv I bo'limi) hamda uzoq muddatli kreditlar va qarz mablag'lar (passiv II bo'limi)dan uzoqmuddatli aktivlarni (aktiv I bo'limi) chegirib tashlagan holda aniqlanadi.

Shunday qilib, zahiralar va xarajatlarni shakllantiruvchi asosiy manbalarining umumiy miqdori qisqa muddatli kreditlar va qarzar summasi qo'shilgan holdagi oldingi ko'rsatkich miqdoriga teng.

3. Uzoq muddatli aktivlar (aktiv I bo'limi) asosan o'z mablag'lari hisobidan shakllanishini e'tiborga olib, ularning miqdori xo'jalik yurituvchi subyekt normal faoliyat ko'rsatgan sharoitda, majburiyatlar (passiv II bo'limi) summasidan ko'p bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ularning nisbati 6/4 va undan yuqori bo'lishi normal holat deb tan olinadi.

4. Balansda barcha aktivlar va passivlar juda batafsil beriladi. Bu uning aktivi va passivi bo'yicha ayrim moddalari, natijada, ayrim mulklarni qoplash manbalari o'rtasida bog'liqlik

o'rnatishga imkon beradi. Masalan, uzoq muddatli va qisqa muddatli qo'yilmalarni qoplash manbalari bo'lib, maxsus mo'ljallangan har xil fondlar va rezerv kapitali hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'ladigan muomalalar ta'sirida korxonalar mablag'larining tarkibida va ularning tashkil topish manbalarida, ayrim hollarda ularning ikkalasida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalaridagi ro'y bergan o'zgarishlar balansda ham tegishli o'zgarishlarga olib keladi. Mablag'lar qiymati o'zgarmagan holda doiraviy aylanish jarayonida ularning buyum shakli o'zgaradi, mablag'lar tashkil topish manbalarining ham shakli o'zgaradi, xo'jalik mablag'lari ko'payadi yoki kamayadi. Lekin balansning asosiy xususiyati - xo'jalik muomalalarini hisobvaraqlarda ikkiyoqlama aks ettirish ta'sirida balans moddalari summasi o'zgarganda aktiv va passiv tengligining o'zgarmasligi doimo saqlanadi.

Xulosa va takliflar.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini yuritish, buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil qilishning huquqiy asoslari yaratilgan, buxgalteriya hisobiga oid qator milliy standartlar (BHMS) ishlab chiqilgan bo'lsada, korxonalar amaliyotida ushbu sohada ma'lum kamchiliklar va o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ushbu masalalarning ayrim jihatlari to'xtalib o'tamiz. Yangi sharoitda buxgalteriya hisobini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz:

- Buxgalteriya hisobining nazorat funksiyasini ko'tarish masalasi. Qabul qilingan qonunlar va qonunosti xujjatlarda buxgalteriya hisobining nazorat qilish funksiyasi to'liq o'z aksini topmagan. Yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga asosan yirik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etilishi, buxgalteriya hisobi xizmati rahbari, unga qo'yilgan talablar keltirilgan, lekin bugungi kunda o'ta muhim bo'lgan kichik biznes subyektlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi ushbu xujjatda to'liq o'z ifodasini topmagan;

- Bugungi kunda, respublikamizda buxgalteriya hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlarda, byudjet tashkilotlarida, banklarda turlicha shakllar va tamoillar asosida yuritilmoqda. Ushbu subyektlarda buxgalteriya hisobining muhim usuli va sharti bo'lgan "Hisoblar rejasini" ham turlichadir. Bundan kelib chiqib turli schetlar rejasiga mos ravishda turlicha hisob registrlari qo'llanilmoqda. Natijada, tarmoqlar va milliy iqtisodiyot darajasida iqtisodiy ko'rsatkichlarni umumlashtirish qiyin kechmoqda. Tarmoq, faoliyat turidan qat'iy nazar, iqtisodiyotning tarmoqlarida yagona tamoyillar asosida buxgalteriya hisobi yuritilishi va yagona "Hisoblar rejasini"dan foydalanilishi kerak deb hisoblaymiz.

- Bugungi kunda korxonalar amaliyotida buxgalteriya hisobining kompyuterlashtirilgan shaklining keng joriy etilishi iqtisodiyot tarmoqlarida yagona buxgalteriya hisobi tizimiga o'tishga imkoniyat beradi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Gulizahro T. et al. (2023) *Buxgalteriya hisobining usullari va tamoyillari* // "Conference on Universal Science Research 2023". – T. 1. – №. 4. – С. 90-92.

Urazov K.B. (2018) *Buxgalteriya hisobi va audit* // Toshkent.

Adamyk O., Adamyk B. (2017) *Accounting methods for public sector entities* // Czech journal of social sciences, business and economics.

Акатьева М.Д. (2012) *Метод бухгалтерского учета: авторский взгляд* // *Международный бухгалтерский учет*. №48. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metod-buhgalterskogo-ucheta-avtorskiy-vzglyad>

Климова М.А. (2003) *Бухгалтерский учет: пособие для переподготовки и повышения квалификации бухгалтеров* // Книги издательства «Бератор-Пресс», М. –

Қонун (2016) *Ўзбекистон Республикаси Қонуни: «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида (янги таҳрири)»*. 2016 йил 13 апрель

Маслова Т.С. (2007) Теоретические аспекты организации и методики бухгалтерского учета бюджетных учреждений // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-aspekty-organizatsii-i-metodiki-buhgalterskogo-ucheta-byudzhethnyh-uchrezhdeniy>.

Мусаев Хасан Нарзикулович (2017) Миллий иқтисодиётни янги босқичга кўтаришда бухгалтерия ҳисобининг тутган ўрни ва такомиллаштирилиши // Экономика и финансы (Узбекистан). №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-i-tisodiyotni-yangi-bos-ichga-k-tarishda-buhgalteriya-isobining-tutgan-rni-va-takomillashtirilishi>.

Одинцова Татьяна Михайловна, Рура Ольга Викторовна (2018) Развитие видов, объектов и методов бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики и информационного общества // п-Економ. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-vidov-obektov-i-metodov-buhgalterskogo-ucheta-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki-i-informatsionnogo-obschestva>

Хасанов Б.А., Хашимов А.А., Мухаметов А.Б., Абдувоҳидов А.А. (2020) “Бухгалтерия ҳисоби” Т.: – 1025 б.